

THE USE OF COMPUTER GAMES TO DEVELOP SPEECH CAPABILITIES FOR CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY

Teshaoeva Feruza Rahimna

Department of Special Pedagogy at the State Institute of Education in Mouse
senior lecturer (PhD)

Son of Sha'drach, Me'shach and A'bed'ne'go,

a second-grade student in computer engineering and information technology

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim – tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga aloxida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tamonidan 2017 yilning 29 dekabr kuni «2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹ qarorning qabul qilinishi ushbu soha rivojida salmoqli o'rin egalladi desak yangilishmagan bo'lamiz. Ushbu qarorda ham bolalarni har tamonlama sog'lom, barkamol etib ta'lim – tarbiya qilish masalalariga juda katta e'tibor qaratilgan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy va ruhiy tomondan to'g'ri rivojlanishi uning aqliy taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi. Bolaning har tomonlama shakllanishi hamda rivojlanishida nutqning to'liq rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Nutq tafakkur oynasi va muloqot vositasi hisoblanadi. Nutq kishilarning tug'ma qobiliyati emas. Nutq bolalik davrida asta-sekinlik bilan rivojlanadigan o'ta murakkab jarayon sanaladi. Bola kattalarga taqlid qilish orqali tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadi, u o'sib rivojlangan sari nutqi ham rivojlanib boradi, lekin biror sabab bilan nutq buzilishlari yuzaga kelsa, bola shaxsining shakllanishiga, bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shu o'rinda bolaning jismoniy, ruhiy, nutqiy rivojlanishida o'yinning ahamiyati haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bu o'yindir. O'yin faoliyatidan keng foydalanish orqali bolaga har tomonlama ta'sir etish mumkin. Bolalarda nutqning to'liq shakllanishi va rivojlanishi uchun logopedik mashg'ulotlarda o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'yin bolalarda qiziqish uyg'otadi va logopedga bolaga kerakli vaqtda ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari zamon talabi sifatida har jabhaga jadal kirib kelmoqda. Bolalarga ma'naviy xavf solayotgan kompyuter o'yinlarini intellektni oshiradigan, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan, korreksion ta'limni amalga oshirishga vosita bo'ladigan foydali o'yinlarga almashtirish o'ta muhim vazifa sanaladi. Bunday o'yinlarni bolalar hayotiga singdirishda asosiy to'siqlardan biri o'zbek tilidagi kompyuter o'yinlarning kamligidir. Shu o'rinda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan, xotirani mustahkamlaydigan, bolajonlarning lug'at boyligini oshiradigan, ularni topqirlikka o'rgatadigan, tafakkurini shakllanishiga hizmat qiladigan bir qator o'zbek tilidagi kompyuter o'yinlarni tavsiya etmoqchimiz. O'ylaymizki, bu o'yinlardan ota-onalar, tarbiyachilar, logopedlar bolajonlarimizni aqliy va nutqiy rivojlantirishda keng

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 29 dekabrda «2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori

April 27th 2022

Foydalanishlari mumkin.



“Rasmlarni joyla” o’yini
Sening ko’z o’ngingda to’qqiz maydonchada turli hil rasmlar paydo bo’ladi.

Markaziy maydonchadagi rasmga mantiqan mos bo’lgan rasmni topib

sichqonchani chap tugmasini bos. Agar sen rasmni to’g’ri ko’rsata olsang, markaziy maydonchada boshqa rasm paydo bo’ladi.



“Juftini top” o’yini

Bir hil rasmlarni top va rasmni ko’rsatish uchun

sichqonchani chap tugmasini bos. Agar sen topshiriqni to’g’ri bajarsang, boshqa tartibdagi rasmlar paydo bo’ladi.

“To’rtinchisi ortiqcha” o’yini

Hozir sening ko’z o’ngingda to’rtta rasm paydo bo’ladi, ularning uchtasini bir so’z bilan nomlash mumkin (masalan, kiyimlar, xayvonlar, uy jihozlari va h.) To’rtinchisi esa ortiqcha. Mana shu sen ortiqcha deb hisoblagan rasmga sichqonchani chap tugmasini bos. Agar sen topshiriqni to’g’ri bajarsang, rasmlar boshqa tartibda namoyon bo’ladi.



April 27th 2022

“Nima o'zgardi” o'yini.

Hozir sening ko'z o'ngingda to'rtta rasm Bolajon, diqqati bo'l va ularni yaxshilab So'ng “O'zgartir” tugmasini bos. Shunda o'zgaradi. Qaysi o'zgarganini topib sichqonchaning chap tugmasini bos. topshiriqni to'g'ri bajarsang, ekranda paydo bo'ladi.

Bu o'ynlarning aloxida jihatdaridan biri bunda bola faoliyati baholab boriladi va onalarga bola o'yin uchun sarflagan avtomatik tarzda kompyuterda hisoblab o'yin so'ngida jami qancha vaqt sarflanganligi ko'rsatiladi.) vaqtiga qarab kerakli tavsiyalar berib boriladi.

Qisqa vaqt

Vaqt.....soniya. Hurmatli ota-ona! Sizlarni qutlash mumkin. Sizning farzandingiz topshiriqlarni juda yaxshi bajardi va o'z yoshi uchun fikrlash qobiliyati juda yuqori ekanligini ko'rsatdi. Farzandingizni xotirasi juda yaxshi va u o'z vaqtida diqqatini jamlay oladi.

Uzoq vaqt

Vaqt.....soniya. Xurmatli ota-ona! Sizning farzandingiz topshiriqni to'laqonli bajarishga harakat qilmoqda. Agar Siz o'z farzandingiz bilan muntazam shug'illansangiz, farzandingiz bundanda yuqori natijalarni ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga uning fikrlash imkoniyatlari oshadi, diqqatini jamlashga, mantiqiy fikrlashga o'rganadi, xotirasi yaxshilanadi, va “bu bir hil” , “bu bir hil emas” kabi muhim tushunchalar shakllantiriladi.


Juda uzoq vaqt

Vaqt soniya. Xurmatli ota-ona! Afsuski, Sizning farzandingiz topshiriqlarni yaxshi bajara olmadi. Unga ko'proq vaqt ajratishingiz va bunday o'ynlarni ko'proq birga o'ynashingiz kerak. Shundagina farzandingiz yuqori natijalarga erishishi mumkin, shu bilan birga u diqqatliroq bo'lishni o'rganadi, xotira va tafakkuri rivojlanadi, “bu bir hil” , “bu bir hil emas” kabi muhim tushunchalar shakllanadi. Turfa ranglar va turli hil rasmlar ifodalanganligi sababli bolangiz bunday ajoyib o'ynlarni jon dili bilan, qiziqib o'ynaydi. O'yin davomida farzandingizni rag'batlantirib turishni yodingizdan chiqarmang! Axir unga Sizning yaqinligingiz va qo'llab – quvvatlashingiz juda muhim!

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bunday o'ynlardan foydalanish bolalarga ham, ota onalarga ham qulayliklar tug'diradi. Bola bajarayotgan ishiga ichki rag'bat ko'rsatsagina, ota-ona ham, defektologlar ham samarali natijaga erishishlari kafolatlanadi. O'yinda multiplikatsion tarzda ishlangan rangli rasmlardan foydalanganligi bola qiziqishini oshiishiga sabab bo'luvchi muhim omillardan biri sanaladi. Bola aynan o'yin orqali bilim oladi, atrof bilan tanishadi, nutq boyligi oshadi, mantiqiy tafakurri shakllanadi, xotirasi rivojlanib boradi, maroqli o'yindan bola ruhiy quvvat oladi, shuning uchun ham taniqli pedagog va shifokor N.A.Arkin o'yinga “Ruhiy vitamin” deb juda o'rinli baho bergan. Hozirgi kunda bolalarimiz bu “Ruhiy vitamin”larni jangari kompyuter o'yinlaridan qabul qilayotganliklarini va bu esa bola ruhiyatida o'z aksini topmay qolmasligini yana bir bor chuqur mushohada qilib ko'rishimiz zarur deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.YU. “Logopediya”. Toshkent-2007y.
2. Nurkeldieva D.A., Ayupova M.YU., Axmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. – T.: “Yangi asr avlodi” 2007
3. Teshaboeva F.R. Metodik klaster – maxsus ta'lim samaradorligini oshirishning innovasion mexanizmi sifatida. // “Maktab va hayot” ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent 2020 -№8. -B 26-27.
4. <http://www.pedagog.uz>
5. <http://www.Ziyonet.uz>
6. <http://Lex.uz>



paydo bo'ladi. eslab qol! rasmlardan biri

Agar sen yangi rasmlar

shundaki, o'z o'rnida ota- (vaqt turiladi va